

**O'ZBEKISTON SHAROITIDA NIZONI SUDSIZ HAL QILISH INSTITUTLARI ICHIDA MEDIATSIYANI
QO'LLASHNING SAMARALI JIHLTLARI**

Zokirova Sabina Yoqubjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va insonson huquqlari yo'nalishi magistranti

E-mail: yakubjan0vna7@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'zbekistonda bugungi kunda nizolarni muqobil hal qilish mexanizmi Kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu borada mediatsiya usuli oldingi qataorlarni egallashga ulgurgan. Ushbu maqolada nizolarni muqobil hal etish usullari haqida ma'lumot va tahlil berilib, O'zbekiston hamda jahon tajribasi haqida so'z yuritilgan. Shu bilan bir qatorda mavzuga doir muammolarga nazar tashlanib, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, ADR, nizo, win-win prinsipi, kelishuv, hamkorlik, jismoniy va yuridik shaxs.

ANNOTATION

In recent years, the system of alternative dispute resolution in Uzbekistan has been steadily developing. In particular, mediation has become one of the most effective and widely used methods. This article analyzes the essence and significance of alternative dispute resolution methods, as well as examines the legal framework and practical experience of Uzbekistan and foreign countries. Furthermore, the paper identifies existing problems in the application of mediation and proposes scientifically grounded recommendations for their elimination.

Keywords: mediation, alternative dispute resolution (ADR), dispute, win-win principle, agreement, cooperation, natural and legal persons.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время механизм альтернативного разрешения споров в Узбекистане динамично развивается. Среди данных методов медиация уже занимает лидирующие позиции. В данной статье представлены информация и анализ методов альтернативного разрешения споров, а также рассмотрен опыт Узбекистана и зарубежных стран. Наряду с этим, в работе уделяется внимание существующим проблемам в данной сфере и выдвигаются соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: медиация, АРС (альтернативное разрешение споров), спор, принцип "win-win", соглашение, сотрудничество, физические и юридические лица.

Insonlar o'rtasida kundalik hayotda o'zaro muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol albatta. Fuqarolar o'z muammolarini murakkablashtirmagan va tez usulda yechim topishlari uchun mamlakatimizda nizolarni sudgacha hal etish usullari mavjud. Bu usullar insonlar o'rtasidagi munosabatni iliq saqlab qolishda tezkorlik va maxfiylik jihatidan o'rni kattadir. Xususan, mediatsiya usuli bunga misol bo'ladi. Bugungi kunda nizolarni sudgacha hal etishning bir necha yo'llari mavjud. Ularga misol qilib,

muzokara(negotiation), yarashtiruv(conciliation), arbitraj, hakamlik sudi, mediatsiya kabilar shular jumlasidandir. O'zbekiston sharoitida bu institutlar birin-ketin yangi bosqichga o'tib bormoqda. Biroq bu tizimni yanada keng yoyish zarur sanaladi. Boisi, 2023-yil holatiga ko'ra: fuqarolik ishlari bo'yicha nizolarning 0,2% qismi mediatsiya orqali hal etilgan bo'lsa, iqtisodiy sudlarda bu ko'rsatkich 1,8% ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar juda ham kam hisoblanib bu sohani hali rivojlantirish zarur bo'lgan jihatlari ko'p. Taqqoslash uchun, ma'lumotlarga ko'ra Amerika va Yevropa davlatlarida nizolarni mediatsiya yo'li bilan sudgacha hal qilish umumiy ishlarning 80 foizini tashkil qiladi¹. Mamalaktimiz hali bu sohada rivojlanish bosqichida. Aslini olganda yarashtiruv, oqibat, o'zganing muammolariga yordam qo'lini cho'zish xazaldan xalqimizga xos xususiyat. Shuning uchun ham bu institute nafaqat Yevropaning, balki Sharqning ham o'ziga xos tizimi desak bo'ladi. Uning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimda yarashuv va vositachilik institutiga oid oyatlar keltirilgan. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, "Niso" surasining 35-oyatida "Agar ikkalovlarining oralari buzilishidan qo'rqsangiz, ernaing ahlidan bir hakam va xotinning ahlidan bir hakam ajrating. Agar ular islohni iroda qilsalar, Alloh er-xotinning orasini muvofiqlashtiradi. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir". "Hujurot" surasining 9-oyatida "Agar mo'minlardan ikki toifa urushib ketsalar, bas, o'rtalarini isloh qiling. Agar ulardan biri ikkinchisiga tajovuz qilsa, siz tajovuz qilganiga qarshi, to u Allohning amriga qaytguncha urushing, agar qaytsa, bas, o'rtalarini adolat bilan isloh qiling. Odil bo'ling, albatta, Alloh adolat qilguvchilarni suyardilar"². Islom huquqida bu institut "sulh" deb atalgan. Bu ishni o'tmishda qozilar amalga oshirganlar. Ularning faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri-nizolarni majburiy hukm bilan emas, balki kelishuv orqali hal qilish edi.

Nizolarni muqobil hal qilish usuli qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, Vavilon, Qadimiy Gretsiya va Qadimiy Rimda mediatsiyani qayd etilgan va u asosan qadimda savdo rivojlangan mintaqalarda ko'p qo'llanilgan. Tarixchilarning tadqiqotlariga ko'ra, mediatsiyaning kelib chiqish ildizi asosiy faoliyatlari dengiz savdosi sanalgan Finikiya va Bobil davlatlariga borib taqaladi. Qadimgi Rimda Yustinian Qonunlari (530-533)ning qabul qilinishi, vositachilikning rivojlanshiga va vositachilar mavqeyini qonuniy tarzda mustahkamlashga turtki bo'lgan. Qadimgi Rimda vositachi bo'lib, ruhoniylar va oqsoqollar faoliyat olib borishgan. Mediatorlar faoliyatini Yustinian Qonunlarida mustahkamlanishi, ushbu institut mavqeyinining keskin tarzda oshishiga olib keldi. Qadimda mediator nizoli holatlarni hal qilish uchun mediatorlik doirasida kelishuv qilishi lozim bo'lgan. Mediator, ya'ni vositachi faqatgina vositachilarga xos maslahat berish orqali yordam ko'rsatibgina qolmay, balki o'zining bilim va tajribalariga suyanib, nizolashayotgan tomonlarga to'g'ri tushuntirish berish, nizo umumiy holatini tushunib qaror qabul qilishlari va kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni bartaraf etish uchun to'g'ri yo'l ko'rsatgan.

XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi tijorat sudlari hisobotlarida mediator ishtirokidagi savdo nizolarini hal qilish eng maqbul usullardan biri ekanligi ta'kidlanib, "mediator" atamasi qo'llanila boshlangan³. Biz ushbu ma'lumotlar orqali mediatsiya kelib chiqish asoslari, Sharq va G'arbdagi o'ziga xos qadimiy jihatlarni o'rgandik.

¹ Mediatsiya: sud organlariga ish yuklamasi kamaytiriladi. https://uza.uz/de/posts/mediatsiya-sud-organlariga-ish-yuklamasi-kamaytiriladi_728540?utm_source=chatgpt.com

² Masadikov Sh.M.Nizomova Sh.K. Mediatsiya: mazmuni va uning rivojlanish tarixi// J.:Journal of universal.-2024.-№2181.B-75. <https://zenodo.org/records/16892726>

³ Masadikov Sh.M.Nizomova Sh.K. Mediatsiya: mazmuni va uning rivojlanish tarixi// J.:Journal of universal.-2024.-№2181.B-76. <https://zenodo.org/records/16892726>

Huquqiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, **BMT ustav 33-moddasida** mediatsiya nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan. Unga ko'ra "Har qanday nizoda qatnashuvchi tomonlar, bu nizoning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga tahdid soladigan bo'lsa, avvalo, nizoning muzokaralar yuritish, tekshirish, **vositachilik**, yarashish, arbitraj, sud yo'li bilan hal etish yoki mintaqaviy organlar yo bitimlarga murojaat qilish yoki o'z xohishlariga ko'ra, boshqa tinchlik vositalari bilan bartaraf qilishga intilishlari lozim" deyilgan⁴. Shuningdek, Yevropa parlamenti va kengashining 2008 yilgi 52-direktivasi fuqarolik va tijorat nizolarida mediatsiya tushunchasiga ta'rif berib o'tgan. "tarafklar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflarning nizoni hal etish to'g'risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayonidir"⁵. Mediatsiya haqida gapirarkanmiz o'zi bu qanday institut, tushuncha, maqsadi nima degan savollarga to'xtalishimiz lozim. **Mediatsiya tushunchasi, lotincha "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish" degan ma'noni anglatadi. Mediatsiyaning maqsadi nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdan iborat.**

Mamlakatimizda so'ngi yillarda nizolarni sudgacha hal etishning ko'plab usullari rivojlanib bormoqda. Nizolarni muqobil hal etish usuli nega ommalashib bormoqda. Biz uchun an'anaviy bo'lib kelgan sud usuli afzal emasmi? degan savol tug'ilishi tabiiy. **Nizolarni muqobil hal qilish usullarini (Alternative Dispute Resolution)** foydali jihatlari ko'p. ADRning asosiy afzalliklari tezkorlik, maxfiylik va moslashuvchanlikdir. Suddagi navbatning ko'pligi, sud jarayonlari xarajatlari ortishi, vaqtning uzoq muddatligi tomonlarni biroz charchatadi va shuning uchun ham ba'zi davlatlar Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar majburiy bosqich sifatida belgilab qo'ygan. Suddagi yuklamani kamaytiruvchi eng yaxshi usul desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo O'zbekistonda hali hamon bu bosqich ixtiyoriyligicha qolmoqda. Hozirda majburiy bosqich sifatida sudgacha bo'lgan bosqich sifatida kiritish yo'lga qo'yilishi uchun harakat qilinmoqda. Davlatimizda ushbu sohani tartibga solishda **Fuqarolik kodeksi. Iqtisodiy protsessual kodeksi, "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonun, "Nizolarni muqobil hal etishning mexazimlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" prezident qarori, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. "Nizolarni muqobil hal etishning mexazimlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 4754-sonli PQning** mazmuni mamlakatda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil amalga oshirish sanaladi. Shu bilan bir qatorda, qarorda ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etayotgani tahlil etilgan. Qaror o'zida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq

⁴ United Nations Charter.

⁵ Nurmatov N.O'. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati.// J.:Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati/viewer>

ishni sudda ko'rishga tayyorlash paytida sudya taraflardan kelishuv bitimini tuzish ehtimolini yoki nizoni hal qilishning muqobil usullari ehtimolini aniqlaydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi deya belgilangan⁶.

Bugungi kunda ADR bo'yicha nizolarni muqobil hal etish- mediatsiya markazi, hakamlik sudlari va TIAC (Tashkent international arbitration centre yurtimizda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Hozirda nizolarni muqobil hal etish usullari ichida keng yoyilib borayotganlaridan biri mediatsiya. Yuqoridagi "Mediatsiya to'g'risidagi qonun"da mediatsiyaga quyidagicha tarif berilgan. Mediatsiya — kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli. Bundan kelib chiqadiki, mediatsiya jarayonini o'tkazish uchun har ikkala tomon ham rozi bo'lishi va kelishishi lozim. Agar bir taraf rozi bo'lsayu ikkinchi tomon norozi bo'lsa mediativ kelishuvga yo'l qo'yilmaydi. Hozirda nega aynan mediatsiyani tomonlar tanlashmoqda degan savol paydo bo'ladi. Unda bizga uning prinsiplari yordamga keladi. Maxfiylik, ixtiyoriylik, tarflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi ishni shaffof olib borishda katta yordam beradi. Shuningdek, agar tomonlar o'zlarining manfaatlarini uchun bir muqobil yechimga kelsalar muddati ham juda tez bo'luvchi jarayondir. Mediatsiyaning yana bir eng ko'zga tashlanadigan jihati shuki, unda mag'lub taraf bo'lmaydi. Bir taraf ustun degan tushuncha bo'lmaydi. Unda "win-win" prinsipi ishlaydi. Ya'ni ikkala taraf uchun ham eng maqbul yo'l tanlanadi va kelishiladi. Uning qulay tarafi nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Mediatsiya nizoni ko'rib chiqishga vakolatli organda, hakamlik sudida va arbitrajda nizoni ko'rish jarayonida ham ularning qarorlari qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin(16-modda)⁷. Taraflar uchun qulay jihatlardan yana biri mediatorni nechta bo'lishini, kim bo'lishini o'zlari tanlaydilar. Faqat qarndoshlik, manfaatlar to'qnashuvi bo'lmasligi zarur. Bu ishni shaffofligiga putur yetkazadi. Mediatsiya amalga oshirilganda agar taraflar kelisha olsa, mediativ kelishuv bilan tugaydi. Ushbu hujjat albatta, yozma shaklda bo'lishi lozimligi qonunning 29-moddasida belgilab qo'yilgan. Endigi masala bu kelishuvning ijrosi masalasidir. Mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo'lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda ijro etiladi. Mediativ kelishuv ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, taraflar mediativ kelishuvni majburiy ijroga qaratishni so'rab sudga murojaat etishga haqli ekanligi ta'kidlab o'tilgan⁸. Nizo tomonlari moliyaviy mezonlari, raqobatbardoshligi, bozor narxlari va ishbilarmonlik obro'sini hisobga olgan holda ularning tijorat ehtiyojlaridan kelib chiqib manfaatli yechim to'g'risida kelisha olishlari mumkin.

Mediatsiya boshqa rivojlangan davlatlarning huquqiy tizimlarida, masalan, Angliya, Avstraliya, AQSH, Kanada va boshqa davlatlarda keng tarqalgan. Nizolarni muqobil hal etish yurtimizda ham sekin astalik bilan keng yoyilib rivojlanib bormoqda. Ushbu dolzarblikning boisi, bir tomondan dunyo miqyosida ko'plab xorijiy davlatlar amaliyotida bu sohani yuqori samara bilan qo'llanilayotgani, ikkinchi tomondan, xalqimizning tarixan shakllangan, ammo hozirda biroz sustlashgan "murosai madora" degan

⁶ Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 4754-sonli PQ.18.06.2020. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/docs/-4859436>

⁷ Mediatsiya to'g'risidagi 482-sonli Qonun. 01.01.2019. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/docs/-3805227>

⁸ Mediatsiya to'g'risidagi 482-sonli Qonun. 01.01.2019. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/docs/-3805227>

qadriyatini qayta jonlantirish uchun kun tartibiga chiqqanligidadir⁹. Davlatimizda mediatsiya sohasi hali rivojlanish bosqichidaligi tufayli turli modellardan foydalanilganicha yo'q. Avstraliya, Amerika va Singapur kabi mamlakatlarda nizoni mediatsiyaning qaysi turi orqali hal qilinishiga qarab ham mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilanadi. Masalan, mediatsiyaning med-arb turida taraflar kelishuvni ixtiyoriy ravishda amalga oshirmagan taqdirda ular yakuniy hulosa(qaror) ni majburiy ijro etilishiga kelishib oladilar va bu ularning majburiyati hisoblanadi. Shuningdek, davlatlarda mavjud bo'lgan mediatsiya markazlari o'zlarining nizomlari orqali qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga qo'shimcha ravishda mediatsiya taraflari, mediatorning huquq va majburiyatlarini belgilashi mumkin¹⁰.

O'zbekiston sharoitida nizolarni muqobil hal etish usullari qachon samarali sanaladi? Avvalo qonunlarda belgilangani kabi ADR tizimi ixtiyoriylikni talab etadi. Tomonlar qachonki bu tizimni qo'llashni xohlasagina bu usullar samarali hisoblanadi. Agar tomonlar uchun vaqt nuqtai nazaridan tezroq yutish istagi bo'lsa, bu usullarni qo'llash ayni muddao bo'ladi. Sud jarayonlari bilganimizdek ko'p muddatni talab etadi va iqtisodiy jihatdan ham qimmat. Yana bir jihatlaridan biri agar tomonlar oilaviy, shartnomaviy, hamkorlik, qo'shnichilik kabi nizolarda o'zaro munosabatni saqlab qolishni istasa eng maqbul yo'l ADRga murojaat qilish hisoblanadi. Bu mamlakatimizda qadriyatlarimizni, insoniylikni saqlab qolishda katta yordam beradi. Bu usullarning afzallik jihati juda ko'p yana biri maxfiylik jihati. Taraflar ayniqsa, oilaviy va biznes masalalarida ma'lumotlari oshkor bo'lishini, sir saqlanishini, o'zlarining reputatsiyasini o'ylagan holda bu usulni tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston sharoitida ADR tizimi nizolarni muqobil hal qilish tizimi sust rivojlangan. Hali keng rivojlanib, huquqiy asosi ham yetarli emas. Faqat umumiy qoidalar bilan chegaralanib qolgan. Amaliy jihatdan qaraganda, mediatsiya iqtisodiy nizolar, oilaviy kelishmovchiliklar, mehnat munosabatlariga oid bahslar hamda fuqarolik-huquqiy kelishmovchiliklarda ayniqsa samarali hisoblanadi. Masalan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida shartnoma bajarilmasligi bilan bog'liq nizolarni sudgacha mediatsiya orqali hal qilish vaqt va mablag'ni sezilarli darajada tejaydi. Sud jarayonlarining uzoq davom etishi, davlat boji va boshqa xarajatlar mediatsiya bilan solishtirganda ancha murakkab va qimmatga tushadi. O'zbekistonda mediatsiya institutidan foydalanish eng samarali bo'lishi uchun nizo keskinlashib ketmasdan oldin, tomonlar muloqotga tayyor bo'lgan va murosaga erishish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlarda qo'llanilishi lozim. Shu orqali nafaqat huquqiy nizolar tezkor hal etiladi, balki jamiyatda kelishuv madaniyati ham rivojlanadi. Aholi orasida ADR ya'ni nizolarni muqobil hal etish tizimi, ularning turlari, afzalliklari haqida tushuntirish ishlari borish zarur. Buni maktab paytidanoq maktab darslilariga singdirish, simulyatsiyalar tashkil etish lozim deb hisoblayman. Mediatorlarni, arbitrlarni maoshi ko'paytirilib, ularni rag'batlantirish zarur. Ammo shu bilan birga ularni o'qtish muddatini uzaytirish, chuqur o'rgatish lozim. Misol uchun psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarni, ixtisosligiga qarab bilim berish va vaqti bilan malakasini oshirib turish. Shuningdek, mening fikrimcha mediatorlik bu bir necha kunda yoki oyda o'rganib qolinadigan kasb emas. Bu insondan qobiliyat ham

⁹Nurmamatov N.O'. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati.// J.:Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati/viewer>.

¹⁰ The Art of Mediation (NITA) 2nd Edition, Kindle Edition 23p.

talab etadi. Shuning uchun salohiyati bor yoshlarni shu kasbga jalb etishga undash ancha samara beradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Charter
2. Mediatsiya to'g'risidagi Qonun
3. Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 4754-sonli PQ.18.06.2020. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/docs/-4859436>
4. Mediatsiya: sud organlariga ish yuklamasi kamaytiriladi. https://uza.uz/de/posts/mediatsiya-sud-organlariga-ish-yuklamasi-kamaytiriladi_728540?utm_source=chatgpt.com
5. Masadikov Sh.M.Nizomova Sh.K. Mediatsiya: mazmuni va uning rivojlanish tarixi// J.:Journal of universal.-2024.-№2181.B-75. <https://zenodo.org/records/16892726>
6. Nurmamatov N.O'. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati.// J.:Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati/viewer>
7. The Art of Mediation (NITA) 2nd Edition, Kindle Edition 23p.